

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**  
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2023**

**6-son**  
(Noyabr-Dakabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

<b>TAHRIRIYAT</b>	
	Ta'lim oluvchilarda muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish) – asosiy to'rtta kompetensiyalar "4k"ni shakllantirish dolzarb masala
<b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>	
<b>A. Ismailov</b>	O'zbekiston tarixi davlat muzeyining ilmiy va tashkiliy faoliyatidan o'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida foydalanish
<b>K.R. Mamadaliev</b>	"Informatika o'qitish jarayonini loyihalash" o'quv fanining o'quv-metodik majmuasini loyihalashtirish asosida takomillashtirish
<b>K. Abrorxonova, D. Abdullayeva</b>	Boshlang'ich ta'limda iqtidorli o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish
<b>K. Abrorxonova, Sh. Bo'riyeva</b>	Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish uchun to'garaklar tashkil etish
<b>Sh.N. Taylakova</b>	Maktab yoshidagi bolalarda xulq-atvorning og'ishi va ularni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar faoliyati integratsiyasi
<b>A. Samadov</b>	Harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari
<b>A. Umarov</b>	Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari
<b>M. Mo'minova</b>	Pedagogik faoliyatda ta'limiy maqsadlarni shakllantirish muammosi
<b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>	
<b>D. Asqarova</b>	Bo'lajak tarbiyachilarni badiiy asarlarni saxnalashtirishga o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari
<b>J. Begijonov</b>	Badiiy kulolchilik mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari va usullari
<b>TA'LIM SFATI MAZMUN VA MOHIYAT</b>	
<b>I. Hasanova</b>	Bola shaxsini rivojlanishida pedagogik diagnostikaning o'rni
<b>J. Abduraxmonov</b>	O'quv jarayoni samaradorligininining nazariy va metodologik asoslari
<b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>	
<b>F. Mavlonov</b>	Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish
<b>G.R. Tojiboyeva</b>	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi omil
<b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>	
<b>R. Djo'raboyeva</b>	Rahbar xodimni kasbiy rivojlantirishda boshqaruv madaniyatining o'rni
<b>HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA</b>	
<b>M. Baratov, D. Yusupova</b>	Maktab direktorlarining samarali boshqaruvini tashkil etishda mehnat huquqini amalda qo'llash zarurati
<b>MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI</b>	

---

G.R. TOJIBOYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti PhD

## SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM – BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL

Annotsatsiya

Maqolada yuqori texnologiyali muhitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zamonaviy o‘qituvchini tayyorlash tizimi kelajakda jamiyatning muhim tarkibiy qismlari va xarakterli xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ta‘lim muhitining ochiq arxitekturasi va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim sharoitida kasbiy muammolarni hal qilish uchun zamonaviy o‘qituvchini tayyorlash bo‘yicha ehtiyoj mavjudligi va pedagogika OTM talabalarini shaxsga yo‘naltirilgan sharoitda real amaliy muammolarni hal qilishga tayyorlashga yo‘naltirilgan moslashuvchan o‘qitish modelini ishlab chiqish zarurligi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Oliy pedagogik ta‘lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kasbiy kompetentlik, pedagogik ta‘lim bakalavriatlarini tayyorlash, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, o‘quv vazifasi, pedagogik faoliyat, kasbiy tayyorgarlik.

В статье рассматриваются важнейшие компоненты и характерные особенности будущей системы подготовки современного педагога к осуществлению профессиональной деятельности в высокотехнологичной среде. Также проанализирована открытая архитектура образовательной среды и необходимость подготовки современного педагога к решению профессиональных задач в условиях лично-ориентированного образования и необходимость разработки гибкой модели обучения, направленной на подготовку студентов педагогических вузов к решению реальных практических задач в условиях лично-ориентированного обучения.

**Ключевые слова.** Высшее педагогическое образование, лично-ориентированный подход, профессиональная компетентность, подготовка бакалавров педагогического образования, учитель начальных классов, учебная миссия, педагогическая деятельность, профессиональная подготовка.

The article reflects on the important components and characteristic features of society in the future, the system of training a modern teacher for the implementation of professional activities in a high-tech environment. It has also been analyzed the open architecture of the educational environment and the presence of a need for the preparation of a modern teacher for solving professional problems in the context of personality-oriented education, and the need to develop a flexible teaching model aimed at preparing students of pedagogy to solve real practical problems in an individual-oriented environment.

**Key words.** Higher pedagogical education, personality-oriented approach, professional competence, preparation of Bachelors of pedagogical education, elementary school teacher, educational task, pedagogical activity, professional training.

**O**‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi “O‘qituvchi va murabbiylar yangi O‘zbekistonda barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” nomli nutqida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, sohadagi ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish asosida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning milliy xususiyatlarini o‘rganish hamda ularni amaliyotga joriy etish yo‘llarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish, ta‘limdagi hozirgi muammolarni hal qilish, yaqin

besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olinishi dolzarb masaladir. “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 60-sonli Prezident farmoni 2022–2026-yillarga mo'ljallangan bo'lib, u 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan, uning to'rtinchi yo'nalishi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanadi. Ushbu yo'nalishning 44-maqsadida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish maqsadi belgilab olindi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Mazkur tizimli islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, oliy ta'lim sifati va modernizatsiyasi nuqtai nazaridan zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Oliy ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri bo'lajak mutaxassislariga kasbiy pedagogik faoliyatni zamon talablari darajasida amalga oshirish imkoniyatini yaratish hamda mutaxassis darajasiga erishish uchun talabalarni mustaqil ish va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ko'niktirishdan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini o'rganish, ta'limdagi to'siqlar va ziddiyatlarni tashxis va bashorat qilish hamda bo'lajak mutaxassisning imkoniyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda ta'lim traektoriyasini korreksiyalash imkonini beradi. Kasbiy kompetentlikni aniqlash bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida o'quv dasturlarining vazifalari belgilanishi, o'qitish mazmuni va metodlari tanlanishi, ta'lim sifatining muassasalar uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan mezon va ko'rsatkichlari aniqlanishi lozim.

90-yillarning oxiriga kelib o'quvchi shaxsini rivojlantirish ta'limini insonparvarlashtirishga, shaxs va ta'lim uyg'unligini ta'minlashga katta ahamiyat berildi. O'qitishni faqat shaxsning bilish sohasini rivojlantirishga qaratilgan tamoyillar asosida olib borish zamonaviy talablarga mutlaqo to'g'ri kelmasligi aniq bo'ldi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv BBTO'ning intellektual, kasbiy va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda professional kompetentligini rivojlantirishligini anglatadi.

Zamonaviy pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga bo'lgan talabning bir qator obyektiv sabablari mavjudligini ta'kidlamochimiz:

– jamiyatning tez sur'atlarda rivojlanishi keng qamrovli kasbiy vazifalarni mustaqil hal qila oladigan, ijodiy izlanish qobiliyatiga ega, o'zini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladigan mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan talab;

– an'anaviy ta'lim jarayonlari o'zining kamharakatligi, inertligi tufayli kompetentli mutaxassislarni tayyorlashga imkon bermaydi;

– muayyan vazifalarni bajarishda mutaxassislarning kasbiy malakasining asosini tashkil etuvchi shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini hisobga olish zarurati;

– zamonaviy oliy o'quv yurtlarida talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni iliqlashtirish, insoniylashtirish asosida talaba shaxsiyati, uning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab o'qitish zarurati;

– qat'iy kasbiy takomillashtirishdan voz kechib, mutaxassislarning shaxsiy salohiyatini kasbiy rivojlantirishga o'tkazish ehtiyoji.

BBTO' kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayon bo'lib, uning talab-

---

lari va imkoniyatlari uyg'unligiga asoslanadi, bu uning subyektivlik, muloqot, erkinlik, o'z-o'zini anglash va o'zini namoyon qilish kabi asosiy belgilarida namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyatda to'liq o'z-o'zini anglash - rivojlangan kasbiy kompetentlikning o'ziga xos xususiyatidir. Demak, o'qituvchi shaxsini subyekt sifatida rivojlantirish muammosini hal etish pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini bilishga bog'liq. Shu bilan birga, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy malakasini rivojlantirish uning asosiy psixologik-pedagogik fazilatlariga e'tibor qaratishiga bog'liq bo'lib, kasbiy mahorati-ning asosini tashkil etuvchi kasbiy kompetentligi bilan uzviy aloqadorligi mavjud.

Boshlang'ich ta'limda o'qituvchilik kasbining mazmun-mohiyati o'zgartirishida, uning mazmuni, mehnat sharoiti, miqdoriy va sifat tarkibi o'zgaradi, shuning uchun professor-o'qituvchilar kasbiy ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatadigan, kasbiy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda shuni hisobga oladilar.

Zamonaviy rasmiy ta'limda asosiy yondashuvlar mavjud bo'lib, bular an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. Har bir yondashuv pedagogik nuqtai nazar va o'qituvchi faoliyati tamoyillariga asoslanadigan "o'qituvchi-shogird" tizimining alohida munosabati bilan tavsiflanadi. Aytish kerakki, ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiyaga yondashuv turlicha bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar, ma'muriyat va o'qituvchi, o'qituvchi va ota-onalar, direktor va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi, ya'ni "yondashuv" ierarxik universal tushunchadir.

An'anaviy yondashuv o'qituvchilarning avtoritar ustunlik pozitsiyasiga asoslanadi, reproduktiv o'qitish usullaridan foydalanish va o'qituvchilar tomonidan talabalarning faoliyatini qat'iy nazorat qilish bilan birlashtiriladi. Ta'lim mazmunida an'anaviy mehnat qilayotgan o'qituvchilar, asosan, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ko'radi. O'qituvchining o'zi doimiy ravishda ma'muriyatning qattiq nazoratida bo'ladi, bu esa o'qituvchining dars mavzusini tanlashda yoki subyektiv yoki obyektiv sharoitga qarab o'zgartirishda ijodiy faolligi va mustaqilligini pasaytiradi. To'satdan tekshirish tahdidi ostida o'qituvchilar darslarni qayta-qayta sinovdan o'tgan, "ishonchli" rejalar bo'yicha o'tkazishni, ishning yangi usullari va shakllarini kiritmaslikni, talabalar bilan faqat dars mavzusi doirasida, uning chegaralarini buzmasdan muloqot qilishni afzal ko'radilar. Ijodiy nuqtayi nazardan "dangasa" o'qituvchi talabani ijodkorligi va ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida u zerikib qoladi, mustaqil fikrlash va harakat qilish imkoniyati cheklanadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'zini anglash va faol pozitsiyani egallashga qodir erkin ijodiy shaxsni shakllantirishga qaratiladi. O'qituvchi demokratik yetakchilik uslubidan foydalanadi va ta'lim mazmunini bilim va malakalar yig'indisi sifatida emas, balki o'quvchining intellektual, hissiy-psixologik rivojlanishining manbai sifatida ko'radi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tufayli o'qituvchi o'quvchini darsda g'ayrioddiy savollar va muammolar bilan jalb qilishga va har bir talaba o'zining eng yaxshi tomonlarini ko'rsatishi mumkin bo'lgan standart darsdan tadqiqot darsini yaratishga harakat qiladi. O'qituvchi o'z mavzusini talabaga yuklamaydi, ular bilan birgalikda o'z fanini bilishga yetaklaydi. Ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida yaratilgan erkin ijod muhitida o'qituvchilar o'quv materialiga o'tishlari yoki o'quvchining ehtiyojlariga qarab mavzuni chuqur o'rganishlari mumkin. Biz an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni to'rtta tamoyilga muvofiq taqqosladik (1 -jadval):

**1-jadval An'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili**

	An'anaviyda	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda
<b>Ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlikni tashkil etish</b>	O'qitish og'zaki usullar va rasmlar yordamida tayyor bilimlarni bevosita uzatishni o'z ichiga oladi	O'qitish amaliy xarakterda bo'lib, ijodiy o'quv vazifalarni yechish jarayonida mustaqil "kashf"lar tomon yetaklaydi
	O'rganish juda zerikarli va mashaqqatli bo'lib, talabning qobiliyatidan tashqarida bo'ladi	Bilimlarni egallash shaxsiy rivojlanishda muvaffaqiyat hissi va o'z-o'zini kashf qilishda quvonchni yaratadi
	O'qituvchi o'rganishga va ta'sirga qarshilikni yengishga majbur qiladi	O'qituvchi - talabning pozitsiyasini hurmat qiladigan va unga xato qilish va o'z fikrini bildirish huquqini beradigan xodim va yordamchidir
	O'qituvchi "fan o'qituvchisi" bo'lib, u tayyorlangan mavzu bilan keladi va o'quvchilarning talab va xohishlaridan qat'i nazar, materialning o'zlashtirilishini ta'minlashi kerak	O'qituvchi o'quvchilarning rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi, ko'zlangan maqsadga olib keladigan ijodiy vaziyatlarni yaratadi
	Talabalar ishini faqat o'qituvchilar tomonidan baholash, bu yerda faqat oz sonli talabalar baholanadi	Barcha talabalar o'z-o'zini baholashda ishtirok etib, "BAHOLANISH" stressidan qochish orqali ushbu ko'nikmani rivojlantiradilar
<b>Dasturga muvofiqligi</b>	O'qituvchi qat'iy dasturga bog'liq, ma'muriyatning qattiq nazorati ostida, fanni o'rganish uchun ajratilgan vaqtni o'zgartirishga xavf tug'dirmaydi va fanlarni o'tkazish tartibini, tashabbuskorlik va ijodkorlikni ko'rsatmaydi ("tashabbus jazolanadi")	O'qituvchi dasturga rioya qilishga majbur, lekin unga qattiq bog'lanmagan. U o'quv vaziyati va talabalarning ehtiyojlariga qarab o'qish vaqtni boshqarish huquqiga ega, shuning uchun dasturga o'zgartirishlar kiritish mumkin, darslarni rivojlantirishga ijodiy yondashuv rivojlanadi
	Rasmiy ish sharoitida darsning asosiy maqsadi materialni takrorlash uchun vaqt topish bo'lsa, o'quvchi sekinlashadi, tashabbus ko'rsatmaydi, o'quvchilarning faolligi bostiriladi	Ijodiy munosabat bilan o'qituvchi fikrlashni talab qiladigan vazifalarni qo'yadi, o'quvchilarning umumiy va aqliy rivojlanishiga erishadi. O'quvchi o'ychan, mehnatsevar va faol bo'ladi
<b>O'quv jarayonini tashkil etish</b>	Bolalarning "kuchli" va "zaif"ga bo'linishi mavjud bo'lib, buning natijasida yomon o'quvchilar o'rganishni "chetdan oshib ketishadi"	Barcha talabalarni qobiliyatli deb tan olish, lekin shu bilan birga, ular uchun vazifalar va ishlarni tanlashda individual va differentsial yondashuv amalga oshiriladi
	O'ylay olmaydigan va qo'yilgan muammoni tushunmaydigan talabalarga salbiy munosabat	Fikrlash va muammolarni qanday hal qilishni o'rganish.
	Frontal va individual ta'limning afzalliklari, ta'limda o'quvchilar o'rtasidagi muloqotning cheklolvi	Kichik ish guruhlarini tashkil etish, mehnatni jamoaviy muhokama qilish, talabalarni jamoaviy intellektual va amaliy ijodga jalb qilish
	An'anaviy og'zaki va vizual takrorlash usullarining ustunligi, ijodiy izlanishlar va yangi o'qitish usullarining etishmasligi	Innovatsion o'qitish usullarini izlashda amaliy, samarali, o'yin, proyektiv va modellashtirilish vositalaridan keng foydalanish

<b>Faoliyatni boshqarish va baholash</b>	Talabalarga faoliyatni tahlil qilish ta'qiqlanadi, o'qituvchi barcha diagnostic funksiyalarni o'z zimmasiga qoldiradi	O'qituvchi bilan birgalikda talabalar ish natijalarini o'rganish va baholash imkoniyatiga ega
	Talabalar ishi va uning natijasini tahlil qilish, sabab-oqibatlar izohlashga o'rgatilmaydi.	Talabalar doimiy ravishda darslarni tahlil qilishda ishtirok etadilar, ular o'z ishlarini va ta'limdoshlarining ishini baholashni o'rganadilar
	O'quv jarayonini boshqarish avtoritar pozitsiyalardan amalga oshiriladi	Hamkorlik va demokratik hamkorlik muhiti yaratilmoqda

Biz yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlil qilib, ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari-dan, shaxsning kasbiy faoliyat asosini tashkil etuvchi shaxsiy munosabatlaridan kelib chiqib, ta'lim jarayonining tamoyillarini belgilab oldik:

- individual ehtiyoj va qobiliyatlarni muvofiqlashtirishga ustuvor ahamiyat berish;
- professional nuqtai nazarning aniqligi va ravshanligi;
- mobil moslashuvchanlik;
- ta'lim texnologiyalari va malaka oshirish qonuniyatlarining aloqadorligi;
- individual va jamoaviy faoliyatning muvozanati;
- talabani shaxsiy tajribasi o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi belgilash va rivojlanish ehtiyojlariga maksimal darajada javob berishi.

Bo'lajak mutaxassis qanday rivojlanishi o'zining qaroriga muvofiq o'quv jarayoni tuzilmasini qurish bilan bog'liqdir. Shuning uchun biz shaxsga yo'naltirilgan ta'limning markaziy jarayoni o'z-o'zini bilish va faol ichki holat ekanligini ta'kidlamochimiz. Har bir shaxs o'z ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, qadriyatlarini va ziddiyatlari asosida individual ishlab chiqilgan usullardan foydalangan holda o'z faoliyat xaritasini tuzadi va unga muvofiq o'zini mustaqil ravishda mutaxassis sifatida yaratadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida bo'lajak mutaxassis o'z ta'limini uning ehtiyojlariga mos keladimi yoki yo'qmi, deb baholay boshlaydi. Talabani ichki baholashi o'z nuqtai nazar bilan hayot kelishuvi sifatida namoyon bo'ladi. Talaba o'z-o'zini tarbiyalashi, o'zini o'zi boshqarishi va ijtimoiy-iqtisodiy o'zini-o'zi ta'minlashi uning o'z taqdirini belgilash mas'uliyatini o'z zimmasiga olganligini hamda hayotiy javobgarlik oshganligini bildiradi. Mas'uliyatni sezgan mutaxassis kelajak oldida ham javobgar ekanligini anglay boshlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 -yilda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

3. Burxanova G.T., Varga V. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. O'quv-uslubiy majmua. – T-2014.

4. Мусина Л.М. (2021). Личностно-ориентированные подходы в обучении. Педагогическая наука и практика, (2 (32)), 37-42. <https://cyberleninka.ru/article/n/lichnostno-orientirovannye-podhody-v-obuchanii>

---

**Bosh muharrir:**  
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Mas'ul kotib:**  
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**  
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**TAHRIR HAY'ATI:**

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV,  
G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA,  
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,  
Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,  
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV,  
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,  
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
E-mail: xalq\_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52  
t.me/xalqtalimi\_jurnali. [http://t.me/xalq\\_talimi\\_jurnali](http://t.me/xalq_talimi_jurnali).

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: \_\_.\_\_.\_\_\_\_-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.  
Shartli b.t. 12,0. Adadi \_\_\_\_ nusxa. – buyurtma.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – To'xtamurodova Shohida Akmalxo'ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rustxt.ru/antiplagiat> sayti hamda [https://t.me/check\\_antiplagiat\\_bot](https://t.me/check_antiplagiat_bot) da monitoring qilinadi.

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2023.